



Gulayim KALIQNAZAROVA,
Berdaq nomidagi Qoraqalpog' davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: gulayim-2025@gmail.com

Qoraqalpog' davlat universiteti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent G.A.Aldjanova taqrizi asosida

MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING AND THEIR CHARACTERISTICS

Аннотация

This article analyzes modern pedagogical technologies in teaching by the teacher during the lesson and their features, and discusses the significant aspects and effectiveness of applying a number of pedagogical technologies in the lesson.

Key words: Pedagogical technology, creative, creative activity, universal specialist, Pitch-show technology, Quiz technology, Collaborative technology, Design technology, Information and communication technology, concept justification, critical thinking.

СОВРЕМЕННЫЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация

В данной статье проанализированы современные педагогические технологии в обучении учителя в процессе урока и их особенности, а также обсуждаются значимые аспекты и эффективность применения ряда педагогических технологий в процессе урока.

Ключевые слова: Педагогическая технология, креативная, творческая активность, универсальный специалист, технология Pitch-show, технология Quiz, технология сотрудничества, технология проектирования, информационно-коммуникационная технология, обоснование концепции, критическое мышление.

O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada dars jarayonida o'qituvchining o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularning xususiyatlari tahlil qilangan va bir qator pedagogik texnologiyalarni dars jarayonida qo'llanishning ahamiyatli jihatlari, samaradorligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, kreativ, ijodiy faollik, universal mutahassis, Pitch-shau texnologiyasi, Quiz texnologiyasi, hamkorlik texnologiyasi, loyihalash texnologiyasi, axborot kommunikatsiya texnologiyasi, tushunchani asoslash, tanqidiy fikrlash.

Kirish. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning kreativ va ijodiy faolligini oshirish, dars jarayonida vaqtdan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning reproduktiv faoliyati ulushini kamaytirish imkonini beruvchi pedagogik ta'lim texnologiyalaridan foydalanib ta'lim sifatini oshirish imkoniyati kengaytiriladi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev o'z nutqlaridan birida «Bugungi kun o'qituvchisi universal mutaxassis, ham o'rgatuvchi, ham o'rganuvchi, o'z ustida tinimsiz ishlashi va doimo izlanishda bo'lishi zarur» [1] deb kelajak avlodlari bilim va ko'nikmalar bilan to'yintirishda, jahon andozalariga mos keluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni izlash, topish va milliy qadriyatlarimizga moslashtirilgan xolda takomillashtirish zarurligini nazarda tutib, yuksak ishonch bildirganligini alohida ta'kidlash joiz bo'ladi.

Bunda jahon ta'lim tizimida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarining keng doirasi mavjud. Sababi, innovatsion pedagogik texnologiyalar o'zaro bir-biri bilan bog'liq va bir-birini taqozo etadi. Bularning barchasi o'quvchilarga bilim berishda ochiqlik, halollik, o'zaro ishonch va bir-biriga o'zaro yordam kabi milliy qadriyatlarimizni ongiga siqdirish orqali ma'naviy ahloqiy jihatdan tarbiyalashga qaratilganligi xarakterli hisoblanadi. Shuningdek o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashuvchan ta'lim ehtiyojlarini ta'minlovchi muayyan didaktik tizim tashkil etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Barchaga ma'lum "Pedagogik texnologiya" tushunchasi fanga XX asrning 60 yillarida kirib kelgan va o'qitishda dasturlashtirilgan o'qitishning texnik vositalarini qo'llash bilan bog'liq degan tushunchalar shakllangan edi. 1970-yillarda mazkur tushuncha kengroq talqin qilinib, o'quv jarayonini takomillashtirishga oid turli fikrlar bilan ta'rif berila boshladi va bu orqali pedagogik texnologiya nazariyalari kengayib boshladi.

Jumladan T.N.Ballo «Pedagogik texnologiya»ni o'qitish jarayoniga nisbatan topshiriqli yondashuv sifatida baholagan bo'lsa, P.Mitchel «Pedagogik texnologiya barcha jihatlariga ko'ra o'ziga xos va samarali natijalarni qo'lga kiritish imkonini

beruvchi pedagogik tizimni tashkil etish bilan bog'liq, ta'lim tizimi doirasida olib borilayotgan tadqiqot nazariyasi va amaliyotining muayyan tarmog'idir» [2]-deb bildirgan fikrlarini manbalarda ko'rishimiz mumkin. Bizningcha pedagogik texnologiyalar – o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishida ko'makdosh bo'la oladigan va ma'lumotlarni esta saqlab amaliyotda qo'llanish imkoniyatini kengaytiradigan o'qitish usullari to'plami hisoblanadi.

Bu esa ta'lim jarayonida quyidagi ta'lim maslarni hal qilishga sharoit yaratadi va turtki bo'ladi. Jumladan, o'quv mashg'ulotlarining mazmunini yoritish; o'quvchilarning shaxsiy fikrlarini yuzaga chiqarish; o'quvchi va o'qituvchi orasidagi do'stlik munosabatlarini shakllantirish orqali faoliyat ko'nikmalarini takomillashtirish; o'quvchilar shaxsiy fikri va pozitsiyalarini himoya qila olishi; kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish orqali o'zaro muloqot madaniyatini takomillashtirish [3] va boshqalar.

Tadqiqot metodologiyasi. Shu boistan bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining mohiyati, qonuniyatlari hamda o'ziga xos jihatlari haqidagi mavjud g'oyalarga va pedagogik bilimlarga tayangan xolda bir necha pedagogik texnologiyalarni tahlil qilishga harakat qildik.

Pitch-shou texnologiyasi – qandayda bir muammoning nostandart yechimini qisqacha taqdim etish texnologiyasi hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi texnologiya darslarida predmetning tuzilishi va shakli bo'yicha muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi [4]. O'quvchining javobi qisqa, aniq, asosli bo'lishi, nima uchun uning fikri boshqalardan yaxshiroq ekanligini va o'z fikrlarini dalillar orqali asoslab berishi kerak bo'ladi.

Quiz – texnologiyasi - Kviz (inglizcha quiz) –musobaqa, so'rov, test degan ma'noni bildirib, o'quvchilar bilimini sinash va bilimlarini baholash maqsadida qo'llaniladi. Quiz texnologiyasi savol-javob va test savollari bilan o'zaro bog'liqlikka ega. Masalan test - bu qisqa muddatli o'yin shaklida o'tkaziladi, unda ishtirokchilar ma'lum bir fanni emas, balki har qanday fan

sohasini teran o'rganish va tushunishga qaratilgan savollarga javob berib bellashadi. Test murakkab fan bo'yicha bilimlarini tekshirish va mustahkamlashga qaratilgan nazariy va amaliy savollarni o'z ichiga oladi.

Shuning uchun ham Quiz texnologiyasi orqali o'quvchilar orasida ma'lum bir mavzu bo'yicha yoki turli geografik savollar bilan raqobat muhitini yaratish mumkin [5]. Ulardan ta'lim jarayonida foydalanishda, mavzular bo'yicha mashg'ulotlardan so'ng, mazkur material bo'yicha bellashuv o'tkazish samarali hisoblanadi.

Hamkorlik texnologiyasi - jahon pedagogikasida an'anaviy metodlarni qo'llashda muvaffaqiyatli muqobil omil sifatida qaralmoqda. Mazkur texnologiyadagi faoliyatga izlanish, o'qituvchi va o'quvchilarning har tomonlama hamkorligi faoliyat usullari inobatga olinadi. Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi turli o'quv jarayonlarida o'quvchilarning faol hamkorlikdagi faoliyati uchun sharoit yaratishdan iborat.

Ta'limni tashkil etish variantlarining katta bloki hisoblangan hamkorlik texnologiyasining maqsadi o'zaro muloqot o'rnatishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Masalan, matnni abzaslar bo'yicha o'qish, matematik masalalarni yechish, mavzular bo'yicha krossvord tuzish, ma'lum bir turdagi muammolarning yechimini topishda tayanch sxemalarni tayyorlash, yangi mavzu bo'yicha savollarga javob tayyorlash va boshqalar uzluksiz topshiriqlarni bajarishga yo'naltiradi.

Loyihalash texnologiyasi - bu muammoni vaziatni batafsil ishlab chiqish orqali didaktik maqsadga erishish usuli hisoblanadi va aniq amaliy natija talab etiladi. Loyihalash texnologiyasining asosiy elementlaridan biri loyiha munozarasi bo'lib, ma'lum bir mavzu bo'yicha loyiha tayyorlanishi va o'quvchilar tomonidan pozitsiyalar himoya qilishiga asoslanadi [6].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari - bu axborotni to'plash, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, aks ettirish va undan foydalanish manfaatlarini yo'lida bilimni o'zlashtirish maqsadida birlashtirilgan usullar va ishlab chiqarish jarayonlari va dasturiy-texnik vositalar majmuidir [3].

Ushbu texnologiyani qo'llashda ta'limni modernizatsiya qilishning asosiy maqsadiga erishishga, ta'lim sifatini yaxshilashga, axborot makoniga yo'naltirilgan, zamonaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan xabardor va axborot madaniyatiga ega shaxsning uyg'un rivojlanishini ta'minlashga, shuningdek, mazkur tajribani taqdim etish bilan birgalikda uning samaradorligini aniqlashga ham yordam beradi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi - o'quvchilarga tanqidiy fikrlashni o'rgatish vazifasini qo'yib, muammolarni tahlil qilish, baholash, aniqlash va muammo yechimini topish imkoniyatini beradi [2]. O'qitishda muammoli ta'limni shakllantirishning bir turi sifatida qaralishi mumkin. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasining maqsadi o'quvchilarni ta'lim jarayoniga interfaol jalb qilish orqali kreativ fikrlashini rivojlantirishni ta'minlashdan iborat.

Masalan tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasida matematika darslarida "To'g'ri va noto'g'ri fikrlar" yoki "Siz ishonasizmi" usuli aytish o'rinni bo'ladi. Bu matematika mashg'ulotlarining boshlanishi bo'lishi mumkin. Bunda o'quvchilar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan «to'g'ri tasdiqlar»ni tanlab, berilgan topshiriqni tavsiflaydi. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligini, bergan javoblarini asoslab berishlari kerak bo'ladi.

Masalan, To'g'ri to'rtburchak shaklini ko'rsatamiz va uni o'quvchilar og'zaki ta'riflab, tushunchasini tasniflab berishlari kerak.

To'g'ri to'rtburchak to'g'ri burchakka ega bo'lgan to'rtburchakga aytiladi.

To'g'ri to'rtburchakning qo'shni tomonlari uning uzunligi va kengligi bo'ladi.

Perimetr to'g'ri to'rtburchak tomonlarining ko'paytmasi hisoblanadi.

Diagonal to'g'ri to'rtburchakning ikki uchini birlashtiruvchi kesishmaga aytiladi.

To'g'ri to'rtburchakning yuzi uning barcha tomonlarining ko'paytmasi teng bo'ladi va boshqalar.

O'quvchilar bu kabi tushunchalarini aytganda matematik hisoblar orqali fikrlarini dalillashi lozim.

«Klaster tuzish» texnologiyasi - o'quv materialini chizmalar yoki rasm ko'rinishida taqdim etish usuli bo'lib, bunda matn mazmunan birliklarga ajratiladi. Klaster tuzish qoidalarida juda oddiy hisoblanib, quyosh tizimining modeli asnosida yulduzlar, sayyoralar va ularning yo'ldoshlari chiziladi [7]. Kuyosh va uning atrofidagi sayyoralar kalit so'zlar sifatida qo'llaniladi va to'g'ri chiziq orqali yulduzlar bilan tutashtiramiz.

Shu o'rinda ta'kidlash jo'i klaster tuzish tizimi katta hajmdagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bundan chaqiriq bosqichida ham, refleksiya bosqichida ham foydalansa bo'ladi. Bu degani mavzuni o'rganishdan oldin fikrlashga undovchi va ma'lumotlarni tizimlashtirishda qulay bo'lishi mumkin. O'qitishning maqsadi asnosida o'quvchilarning individual, kognitiv ijodkorligi natijasi muhokama o'zaro muhokama qilinadi.

TRIZ texnologiyasi (Ixtirochilik masalalarini yechish nazariyasi) mohiyati muammoning nostandart va optimal yechimini kam kuch sarflab topishdan iborat. Texnologiyaning asosiy maqsadi g'oya va moslashuvchan fikrlashni takomillashtirish, muammolarning yechimini samarali usullar bilan hal qilishga tayyorlash va ijodkor shaxsni shakllantirishdan iborat.

Barcha o'quv mashg'ulotlari va o'yinlar o'quvchilarning mavzuga oid manbalar va kognitiv ijodiy faoliyatni turini mustaqil tanlash hususiyatlarini nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar muammoning kelib chiqish xususiyatlarini terang anglashi, aniqlashi va hal qilishga oid g'oyalarini ilgari surish talab etiladi. Masalan, kundalik hayotda foydalanish mumkin bo'lgan bir qator TRIZ-texnologiyalariga asoslangan misollar [8]. Jumladan, bolg'a bo'lmasa, mixni nima bilan qoqish mumkin? Uyda elektr toki o'chib qolsa, qanday qilib televizor qo'rish mumkin? Internetga kirish imkonini bo'lmasa, undan qanday foydalanish mumkin? va boshqalar.

Triz texnologiyasi asosida o'qitishni tashkil qilish tizimlari ma'lum qonun-qoidalar asosida rivojlanib takomillashib boradi va ixtirochilik muammolarini hal qilish algoritmi (ARIZ) ni yaratish uchun foydalanish mumkin degan tushunchaga asoslanadi. Shunday qilib, o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi va ularni tavsiflovchi asosiy omil bu o'quv jarayonining noodatiy asoslari, ta'lim maqsadlarni qo'yishning o'ziga xos hususiyatlari bo'lib, ular o'quvchilardagi kreativ fikrlash va ijodiy faoliyatining taxminiy natijasi asosida belgilangan aniq ko'nikmalar bilan shakllantiriladi.

Tahlil va natijalar. O'yin texnologiyalari - bu mavzuni o'zlashtirishda turli pedagogik o'yinlar shaklida dars jarayonini tashkil etish usullari va metodlari bo'lib, o'quvchilarning bilish va o'zlashtirish faolligini orttiradi, o'zlarida paydo bo'lgan mavzuga oid savollarga mustaqil ravishda javob izlashga undaydi, hayotiy tajribasidan ma'lum bir ma'lumot haqidagi odatiy tasavvurlaridan foydalanishga imkon beradi [4]. Ushbu texnologiya didaktik, rolli va ishbilarmonlik o'yin turlari mavjud.

Didaktik o'yinlarga o'yin mashqlari, sayohat o'yinlari va musobaqa o'yinlari kiradi.

O'yin-mashqlar - o'quvchilarning bilish qobiliyatini takomillashtirib, o'quv materialini mustahkamlashga yordam beradi va turli sharoitlarda qo'llash qobiliyatini rivojlantiradi [5]. O'yin-mashqlariga krossvordlar, rebuslar, bellashuvlar kiradi.

Sayohat o'yinlari - o'quv materialini tushunish va mustahkamlash, o'quvchilarning faolligini orttirish hikoya, munozara, ijodiy topshiriqlar, farazlarni ifodalash shaklida ko'rinishi mumkin.

Musobaqa o'yinlariga didaktik o'yinlarning barcha turlari kiradi. O'quvchilar guruhlariga bo'linib o'zaro musobaqalashadi.

Rolli o'yinlar o'quvchilardagi amaliy faoliyat ko'nikmalariga o'rgatishning samarali usuli hisoblanadi. Bunda yangi mavzuni o'zlashtirishi, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi, shuningdek, bilim ko'nikmalarini shakllantirish uchun kompleks vazifalarni bajarishda qo'llaniladi.

Ushbu rolli o'yinda o'quvchilarga o'z qaxramoni rolini o'ynab sinab ko'rish yoki ma'lum bir muammoli vaziyatni roli orqali yuzaga keltirish imkoniyati taklif etiladi. Bu kabi metodikani qo'llanish uchun o'xshash nomlardan foydalansa bo'ladi. Shuningdek rolli o'yinlar tanqidiy fikrlash

ko'nikmalarini, muloqot madaniyati ko'nikmalarini, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini takomillashtirishga, turli hil vaziyatlarda o'zini tutish usullarini ishlab chiqishda, atrofidagi odamlarning holatini, fikrini tushunishi qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi [9]. Ishbilarmonlik o'yini - bu o'yin texnologiyalarining keng ko'lamli takomillashgan turi bo'lib, sinf o'quvchilarning samarali birgalikdagi faoliyatini, ishbilarmonlik muloqotini, intellektual raqobati bilan ajralib turadi.

Xulosa va takliflar. O'quv-mashg'ulot jarayonini hayotiy vaziyatga moslashtirib, ijtimoiy muhitda talab qilinadigan jamoada faoliyat yuritish, o'zaro hamkorlik, shaxsiy manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashtirish kabi ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirishda ishbilarmonlik o'yini samarali

hisoblanadi [10]. Qolaberdi mazkur o'yinni amaliyotga joriy etish ta'lim sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarni jamiyatda mustaqil hayotga tayyorlashning muhim omili vazifasini bajaradi.

O'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash va uni tavsiflovchi asosiy komponent dars jarayonining pedagogik maqsadlarni qo'yish orqali foydalaniladigan o'ziga xos usuli bo'lib xizmat qiladi. Bu maqsadlar o'quvchilar faoliyatining natijasini tahmin qilishda aniq ko'nikmalar shaklida ifodalanadi. Har bir o'qituvchi faoliyati davomida to'plagan pedagogik tajribasidan kelib chiqqan xolda pedagogik texnologiyalarni ijodiy yondashuvlar asosida takomillashtirishi zarur deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning «O'qituvchi va murabbiylar» kuniga bag'ishlab yo'llagan tabrigi. 28.09.2019. president.uz
2. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. "Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari" (o'quv qo'llanma) Toshkent. - 2006. /15-6er./
3. Ibraimov Kh. I. Creativity is one of the characteristics of a budushchego pedagogue //Science, education and culture. – 2018. – no. 3 (27). - S. 44-46.
4. Pazilov M.A. "Pedagogical-psychological approaches to the development of musical abilities of specialized schoolchildren" // Procedia of Philosophical and Pedagogical Sciences. Volume – 2. Issue – 5. May – Portugal, 2023. /page 31/
5. Запорожская К.В. «Применение современных педагогических технологий в обучении» Современные педагогические технологии и инновации: сборник статей областных педагогических чтений. Омск, 25 октября 2023 г. – Омск: БПОУ «ОПК №1», 2023. – 170 с. /стр 34-35/
6. Сайгушева Л.И., Стряпухина И.С. Игровые технологии как средство приобщения младших дошкольников к самообслуживанию //Международный журнал экспериментального образования. – 2014. – № 7-2. – С. 39-41;
7. Веденева О. А, Савва Л.И, Сайгушев Н.Я. «Педагогические технологии в современном образовательном процессе». Учебное пособие- М.: Мир науки, 2016. /Стр 22, 60/
8. Олешков М.Ю. «Педагогическая технология: проблема классификации и реализации //Профессионально-педагогические технологии в теории и практике обучения: Сборник научных трудов. — Екатеринбург: РГППУ, 2005. — /с. 4-19/.
9. Гузеев В.В. Методы и организационные формы обучения. – М., 2009.
10. Дьяченко В.К. Сотрудничество в обучении. – М., 2017